

Yusupova M.

UrDU, Urganch, 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar – dots. O.O.Cho'ponov

O'ZBEK TILIDAGI AYRIM GASTRONOMIK ATAMALARNING YASALISHI HAQIDA

Gastronomiya Sharq xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqi lug'aviy boyligining muhim qatlami hisoblanadi. U o'zbeklarning milliy fazilatlarini o'zida aks ettiradi. Gastronomik atamalarga murojaat qilish o'zbek tilini o'rganishda nafaqat qiziqarli, balki ayni paytda juda dolzarbdir.

Oziq-ovqatlarning nomlari xalqning kundalik hayotiga tegishlidir. Shuning uchun o'zbek gastronomik atamalarini o'rganishning ahamiyati, ulardagi so'z yasallishining o'ziga xos xususiyatlari biz uchun o'zbek tilini lisoniy vositalar orqali yaxshiroq o'rganish imkonini yaratadi.

Oziq-ovqat insonning yashashi uchun zarur hisoblangan kiyim-kechak, uy-joy, geografik muhit, shu bilan bir qatorda xalqning moddiy hayot sharoiti kabi juda muhim narsalaridan biri hisoblanadi. U xalqlarning o'tmishi, bugungi hayoti, madaniyati va urf-odatlarini bilan bog'liqdir. Oziq-ovqat inson hayotining usiz yashab bo'lmaydigan asosi, energiya manbaidir. Har bir millat, har bir madaniyat o'z iste'mol va ovqatlanish madaniyatiga ega. Shuningdek, oziq-ovqatlar o'zining ta'mini yoki turi haqida emas, balki tilshunoslik va ekstralingvistik omillarga bog'liq lisoniy tendensiyalar haqida ham ma'lumot beradi.

V.V.Vinogradov tilda so'z yasallishining o'rni va rolini o'rganib, uning noturg'unligini ta'kidlaydi. So'zlarni morfologik va sintaktik-morfologik shakllanish usullari va jarayonlarini o'rganish sohasi morfologiyaga yaqin turadi, ba'zida esa u bilan birikib ketadi. So'z birikmalarining leksik-semantik shakllanish jarayonlarini o'rganish haqidagi masalalar leksikologiya bilan doimiy ravishda bog'liqdir.

Ta'kidlash joizki, o'zbek tilida oziq-ovqat mahsulotlarining nomlari mutlaqo to'laligicha hali o'rganib chiqilmagan.

«Soʻz yasalishi» atamasi ikki xil hodisaga nisbatan qoʻllanadi: 1) tilshunoslikning soʻz yasalishi bilan bogʻliq hodisalarni tekshiruvchi boʻlimini; 2) umuman soʻz yasalishi, soʻz hosil qilinishini bildiradi.

Oʻzbek tilida soʻz yasalishining affiksatsiya, kompozitsiya, fonetik, semantik, abbreviatsiya kabi usullari boʻlib, shulardan affiksatsiya va kompozitsiya usullari asosiy va yetakchi usullar hisoblanadi.

Quyida oʻzbek tili gastronomik atamalarining nomlari shakllanishining asosiy modellarini koʻrib chiqamiz.

1. ***Feʼl + -ma modeli***. Ushbu modelga koʻra feʼlning quyidagi nomlari paydo boʻlgan:

- ezma (*ez + -ma*) – pyure (kartoshkali, olmali);
- qaynatma (*qaynat + -ma*) – murabbo;
- qatlama (*qatla + -ma*) – qavatlangan non (xamirturushsiz xamirdan);
- qotirma (*qotir + -ma*) – toʻgʻrab qotirilgan non;
- qovurma (*qovur + -ma*) – qovurilgan ovqat, qovurdoq;
- suzma (*suz + -ma*) – suzma (qatiqdan suvini ajratib olish orqali olinadigan sut-qatiq mahsuloti);
- oʻrama (*oʻra + -ma*) –qaynatilgan yoki yogʻda qovurilgan xamirdan qilingan taom;
- doʻlma (*toʻl feʼlining oʻzgargan shakli, toʻl + -ma*) – karam doʻlma va shu kabilar.

2. ***Ot + -lik modeli***. Koʻpchilik hollarda yasama soʻzga affiks qoʻshish orqali yasaladi:

- ichimlik (*ichim + -lik*) – ichiladigan suyuqlik;
- tuzlik (*tuz + -lik*) – noz-neʼmat va shu kabilar.

3. ***Feʼl + -ik (-iq)/-k modeli***: qatiq (*qat(i) + -iq*) –sut mahsuloti .

4. Model *feʼl + -moq*: qaymoq (*qay(na) + -moq*), quymoq (*quy + -moq*).

5. ***Feʼl + -gi/-ki/-qi modeli***. Bu leksik-semantik guruhni ovqat tayyorlash uchun shartli ravishda kiritilgan ingredientlar tashkil qiladi: achitqi (*achit + -qi*) –

xamishturush, kvas; uyutqi (*uyut* + *-qi*) – sutni qatq qilishda ishlatiladigan sut mahsuloti.

O'zbek milliy taomlari bugungi kungacha o'zining o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan. U xalqning hayoti, iqtisodiy, moddiy va madaniy hayot tarzi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbek tilining, shuningdek, boshqa tillarning ham taom nomlari bo'yicha so'z yasash jarayoni o'rganilgan tilning leksikasi hamda ushbu tilning grammatik tuzilishi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Yangi so'zlarni yasashda so'z yasashining lug'at bilan bog'liqligi ushbu tilning asosiy lug'aviy fo'ndidagi so'zlarning qo'llanilish jarayonida namoyon bo'ladi. Grammatik tuzilishi bilan bog'liqligi esa hosil bo'lgan va endi paydo bo'ladigan modellardan foydalanishda aniqlanadi. Buning sababi shundaki, oziq-ovqat nomlari kundalik hayotda yuz berayotgan voqealarni o'zida aks ettiradi.

Shunday qilib, an'anaviy oziq-ovqat nomlari doimiy va keng tarqalganligi tufayli o'zbek tilining asosiy lug'aviy fondlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning uzluksiz rivojlanish sharoitida oziq-ovqat toifalari tarkibida o'zgarishlar ro'y beradi: yangi turdagi oziq-ovqat turlari paydo bo'ladi va ular bilan yangi nomlar tilga kirib keladi. Bundan tashqari, bu tilning qatlamlari boshqa tillardan atamalar va so'zlar o'zlashtirishi orqali ham boyiydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Виноградов В.В. История русских лингвистических учений. – М., 1986.
2. <http://izlan.uz/soz-yasalishi/>
3. <https://referat.arxiv.uz>